

## “O’TKAN KUNLAR” ROMANINING INGLIZ TILIGA TARJIMA VARIANTLARI

Nosirova Arofat Erkinovna

ToshDO‘T AU mustaqil tadqiqotchisi.

*arofat.nosirova@mail.ru.*

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10809604>*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining ingliz tilidagi tarjima variantlari va tarjimonlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, ushbu romanni ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonlari, makon va zamoni, tarjimaning sifati va salohiyatiga tadqiqotchilarning izohlariga ham to’xtalib o’tiladi.*

*Kalit so‘zlar: O’tgan kunlar, Mark Edward Reese, Bygone Days, Qo’shma Shtatlar, Tinchlik korpusi ko’ngillisi, Qoqondagi maktab, ingliz tili.*

### TRANSLATION OPTIONS OF THE NOVEL "THE PAST DAYS" INTO ENGLISH

*Abstract. This article provides information about the translation options and translators of Abdulla Qadiri’s novel “O’tkan Kunlar” in English. Also, the process of translating this novel into English, its place and time, and the researchers’ comments on the quality and potential of the translation will also be discussed.*

*Keywords: Bygone Days, Mark Edward Reese, Bygone Days, United States, Peace Corps Volunteer, School in Kakon, English language.*

### ВАРИАНТЫ ПЕРЕВОДА РОМАНА «МИНИЕ ДНИ» НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

*Аннотация. В данной статье представлена информация о вариантах перевода и переводчиках романа Абдуллы Кадири «Откан Кунлар» на английский язык. Также будет обсуждаться процесс перевода этого романа на английский язык, его место и время, а также комментарии исследователей о качестве и потенциале перевода.*

*Ключевые слова: «Минувшие дни», Марк Эдуард Риз, «Минувшие дни», США, волонтер Корпуса мира, школа в Каконе, английский язык.*

Tarjima qandaydir fan sohasi emas, balki muallifning fikrini yetkazib berish san‘atidir.

**Mark Edward Reese**

“O’tkan kunlar” yozilganidan yuz yil o’tib, asar deyarli bir vaqtida uch tarjimon tomonidan ingliz tiliga tarjima qilindi. Tarjimonlar: Ilhomjon To’xtasinov, Karol Ermakova va Mark Edward Reeselardir. Mazkur tadqiqotda “O’tkan kunlar”ning asliyat tilidagi hamda yuqorida ketma-ket nomlari keltirilgan tarjimonlar tomonidan qilingan inliz tilidagi tarjimalarda keltirilgan frazeologik birlıklarning milliy-madaniy xususiyatlarini taqqoslab o’rganishni maqsad qilinganligi sababli, ushbu tarjimonlar va ular tomonidan amalga oshirilgan “O’tkan kunlar” romani tarjima xususiyatlariga batafsil to’xtalib o’tilish joizdir.

Hozirgi davrdagi ”O’tkan kunlar” romanining yuqori beshlik reytingni egallab turgan ingliz tilidagi tarjimasi Amerikalik tarjimon Mark Edward Reese tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu tarjima asar milliy va xorijiy o‘quvchilar tomonidan qizg‘in kutib olinishi bilan birga, asar tarjimoni Mark Eduard Reese va uning tarjimasi yurtboshimiz hamda ko‘pgina o‘zbek adabiyoti namoyondalari tomonidan yuksak olqishlarga muvaffaq bo‘ldi.

Mark Reese Amerika Qo‘shma Shtatlarining Arizona shtatidagi chet bir qishloqda tug‘ilib, voyaga yetgan. U Markaziy Osiyodagi deyarli yigirma besh yillik ish faoliyatini 1994-1996-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi “Tinchlik Korpusi” ikkinchi guruh ko‘ngillisi sifatida boshlagan. Bungacha u O‘zbekiston haqida mutlaqo bexabar bo‘lgan.

U sakkiz yillik faoliyati davomida ikki yil Qo‘qondagi 23-sonli mактабда ingliz tilidan dars berdi, o‘zbek tilini o‘rgandi, shu bilan birgalikda dala ishlarini o‘rgandi. Qo‘qon xalqi tili, madaniyati va turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi, davlat departamentining qiyosiy dinshunoslik bo‘yicha O‘zbekistondagi hamkorlik dasturining mamlakat direktori, Mudofaa vazirligi uchun tarjimon va maslahatchi, shuningdek, mamlakat ichidagi akademik tadqiqotlar va ilmiy tarjima ishlari bilan shug‘ullandi.

Mark Reese Qo‘shma Shtatlar Mudofaa vazirligida tarjima va madaniy maslahat shartnomalarini boshqaradigan sayt menejeri bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik u Amerika Qo‘shma Shtatlari dengiz akademiyasida ishlagan, Yaqin Sharq va Islom tadqiqotlari markazi direktori o‘rinbosari va Mintaqaviy tadqiqotlar markazining ta’sischi direktori lavozimlarida ishladi. Afg‘onistonga tarjimon sifatida yuborilgan. Shuningdek, Mark Reese Termiz, Samarqand va Qo‘qon shaharlarida an‘anaviy o‘zbek maktablarida bolalarga ingliz tilidan dars bergen va o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarida faol qatnashgan. Hozirda Mark Reese o‘zbek tarjimonlari, yozuvchilari va ijodkor rassomlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Muloqot” madaniy hamkorlik dasturi direktori lavozimida faoliyat olib bormoqda. Uning “The Uzbek Modernist” vebsaytida Abdulla Qodiriyning hayoti, ijodi hamda “O‘tkan kunlar” romani va tarjimonning o‘z bibliografik ma‘lumotlari berilgan. Ayni paytda Mark AQSHning Tennesi Shtati Nashvil shahrida istiqomat qiladi.

Mark Reese Farg‘ona vodiysidagi xizmat safari davomida ko‘pgina taassurotlarga ega bo‘lib, o‘ziga berilgan vazifani nihoyasiga yetkazgach, vataniga qaytib, Vashington universitetida Turkiy tillar va adabiyoti, xususan o‘zbek tili, jadidchilik va islom fikhi bo‘yicha tahsil oldi.

O‘zbek va uyg‘ur tillarini chuqur o‘rgana boshladi.

Mark Reese Abdulla Qodiriyning ijodi bilan o‘zining ustoz - professor Elza Sirtiut orqali tanishdi. Mark Eduard Reesening so‘zlariga ko‘ra, Elza Sirtiut Toshkent va Qo‘shma Shtatlardagi Sietl shaharlari o‘rtasida birodarlik munosabatlarini o‘rnatish tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. Sirtiut rahbarligida Mark qadimiy turkiy tilning qadimgi shakllaridan O‘rxun yozuvini va chig‘atoy tilini o‘rgandi.

2002-yilda aspiranturada o‘qib yurgan kezlarida Markga imtihon topshirish uchun “O‘tkan kunlar” romanining dastlabgi bobini tarjima qilish vazifasi yuklatiladi. Mark Reesening o‘zbek adabiyoti durdonasi bo‘lmish “O‘tkan kunlar” romaniga qiziqishi shundan boshlanadi. Mark romanning oxiri nima bilan tugashini ishtiyoq bilan o‘qib chiqadi. Uni ilhomlantirgan yana bir omil - Mark Reese Qo‘qonda yashab, ishlab yurgan kezlarini so‘z bilan ifodalashga ojizligi, “O‘tkan kunlar” esa tarjimonga o‘sha tushuncha va hissiyotlarni so‘z bilan chuqur ifodalay olgani bo‘ldi. Chunki tarjimonning so‘zlariga ko‘ra, o‘zbek tabiat, ruhiyati, tili va dunyoqarashi Abdulla Qodiri asarida yaqqol aks etganligini ko‘rsatadi.

Mark Reese Toshkentdalik paytida aksariyat o‘zbekistonliklar Abdulla Qodiriy va “O‘tkan kunlar” romani haqida yaxshi bilimga egaligiga guvoh bo‘lgan. Shunday qilib, Mark Eduard Reese “O‘tkan kunlar” tarjimasi uchun asarning 1926-yildagi arab yozuvidan kirill yozuviga o‘girilgan matnidan foydalanadi [1]. Xondamir Qodiriy Mark Reese bilan uchrashuv chog‘ida bu asarni shoshmasdan, sifatli tarzda tarjima qilish kerakligini maslahat beradi [2]. –Har bir tilning o‘z shirasi bo‘lganidek, Abdulla Qodiriy tilining ham o‘z jozibasi, shirasi bor. Tarjimon asarni ingliz tiliga o‘girish jarayonida ayni jihatlarning saqlanib qolishiga erishgani uning yutug‘idir, deydi Xondamir Qodiriy o‘z nutqida.<sup>1</sup>

Romanni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida Mark Eduard Reese Qodiriy davridagi Markaziy Osiyoni, madaniy muhitni tushuntirib berish uchun muallif tomonidan ishlatalgan turli xil atamalar va frazeologik birliklarning 500 ga yaqin izohlari va o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlarini tushuntiruvchi sharhlar qo‘sadi. Mark bu sharhlarni tekshirtirish uchun Umida Xoshimova va Umida Hikmatullayeva kabi o‘zbek tili va abbiyoti namoyondalaridan ko‘mak oladi. Abdulla Qodiriyning romanda qo‘llagan “ko‘cha tili” da ifodalagan joylari Markga tarjima jarayonida biroz qiyinchilik tug‘diradi. Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” xotira kitobida berilishicha roman ustida ishlay turib, Qodiriy romanga asl tilni singdirish uchun qishloqma-qishloq kezgan. Mark bu o‘zi uchun jumboqli bo‘lgan so‘z va iboralarini Toshkentga kelganida tushunishi osonroq bo‘lgan, deb izohlaydi.

Shuningdek, Mark Reese o‘zgarishlarga qaramasdan, hali ham mukammal, zamonaviy o‘zbek-ingliz lug‘atini ko‘rmaganligi achinarli holat ekanligini ham qo‘sishma qiladi. Roman nomini ingliz tilida gapiradigan o‘quvchiga to‘g‘ri taqdim etish uchun Mark asarning asl o‘zbekcha nomini qoldirib, “Bygone Days” deb qo‘sishma qiladi. Buni tarjimon quyidagicha izohlaydi: Qur‘onni boshqa nom bilan atalmaganligini - barcha tillarda bir xil nom bilan atalishini, shuningdek “Shohnoma” da ham asliyat tilidagi nomi saqlab qolninganligi, “Shohlar kitobi” deb o‘zgartirilmaganligini misol qilib ko‘rsatadi.

Xullas, Mark Eduard Reese o‘n besh yillik (2004-2019) umrini sarflagan tarjima asar “Bygone Days” nomi bilan 2019-yilning 11-aprel kuni Qodiriy tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlab Vashingtonda chop etiladi. 2019-yilning 27-dekabrida O‘zbekistonning Vashingtondagagi elchixonasida “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tilidagi nashri taqdimoti bo‘lib o‘tadi. Ushbu kitobni “Amazon” platformasida sotib olish mumkin. Tarjima o‘quvchilar tomonidan yuqori baholanmoqda va “besh yulduzli” reytingni saqlab qolmoqda. Bu tarjima asar AQSHning Kongress kutubxonasidan ham o‘rin olgan.

2021-yil 27- Aprel kuni yurtimizning Adiblar xiyobonida “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tilidagi yana bir taqdimoti bo‘lib o‘tadi. Unda asar tarjimoni Mark Eduard Reesening o‘zi ham ishtirok etadi. Tadbirda shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, taniqli adib Xurshid Do‘stmuhammad, adabiyotshunos Suvon Meli, professor Bahodir Karimov, Abdulla Qodiriy uy muzeyi rahbari Xondamir Qodiriy, tilshunos va adabiyotshunos Gulnoza Odilova va ko‘pgina yozuvchi va shoirlar ishtirok etishdi va tarjima, tarjimonning yutuqlari haqida so‘zladilar.

<sup>1</sup> [https://uz.a.uz/posts/mark-edvard-riz-halqingizning-mentaliteti-dunyoqarashi-ruhiyati-zhozibador-tili-abdulla-qodiriy-asarida-muzhassam\\_261789](https://uz.a.uz/posts/mark-edvard-riz-halqingizning-mentaliteti-dunyoqarashi-ruhiyati-zhozibador-tili-abdulla-qodiriy-asarida-muzhassam_261789)

Taqdimot tadbirda Abdulla Qodiriy haykali poyiga gullar qo'yildi. Mark Eduard Reesega O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zolik guvohnomasi topshirildi. Tadbir davomida A. Qodiriyning nabirasi Xondamir Qodiriy tarjimon asarda muallif tilining jozibadorligini saqlab qolishga intilgani uning buyuk asarga, o'zbek tiliga bo'lgan hurmatini anglatishini ta'kidladi.

Gulnoza Odilova esa o'z nutqida Mark Reese tarjima jarayonida xalqning mentalitetini ifodalay olganligini va tarjimada uning xalqimizga cheksiz muhabbatni yaqqol sezilib turganligini ta'kidlaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, prezidentimiz tomonidan amerikalik ijodkor Mark Eduard Reese madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'lkan hissasi uchun 'Do'stlik' ordeni bilan taqdirlandi. Mukofot O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasida O'zbekistonning AQSHdagi elchisi Javlon Vaxabov tomonidan topshirildi.

1980-yil 4-mayda Andijon viloyati Shahrixon tumanida tug'ilgan Ilhomjon To'xtasinov Madaminovich 2017-yilda Samarqand Davlat Chet tillari instituti rektori lavozimida faoliyat olib borishi bilan bir paytda hamkasblari O. M. Muminov, A. A. Hamidovlar "O'tkan kunlar" romanini ingliz tiliga tarjima qilishga milliy tarjimonlardan birinchilardan bo'lib qo'l urdilar.

Adabiyotshunos, tarjimashunos, tilshunos olim tarjima qilgan "O'tgan kunlar" romani "The Days Gone by" nomi bilan Toshkent shahridagi "Mashhur-Press" nashriyotida 2017-yilda chop etiladi. Asar o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinishi bilan birgalikda ilmiy izlanuvchilar tomonidan ba'zi bir tanqidlarga ham uchraydi. Masalan, tilshunos va adabiyotshunos tadqiqotchi Gulnoza Odilova romanning tarjima variantlarini o'z tadqiqot ishida taqqoslaganligi haqida quyidagi izohlarni keltiradi:

– Romanni bir yarim yil oldin diqqat bilan o'qib chiqdim, – deydi Gulnoza Odilova. – Men doktorlik tadqiqotimda o'zbek milliy mentalitetidagi ovqatlanish, oila davrasidagi kommunikativ muloqot jarayonini tarjimada qanday berilganini tadqiqqa tortgandim va bunda "O'tkan kunlar"ning Ilhom To'xtasinov tarjimasiga qarab, juda ham xafa bo'lgandim. Chunki u yerda milliylikka oid ko'p so'zlar tushib qolgan. Masalan, romanda O'zbekoyim Otabekni Zaynabni qaynotasinkiga charlarga oborishga majburlab turgan mahal o'g'li borgisi kelmay, xo'r-xo'rlatib choy ichadi. Ya'ni, bu yerda Otabek onasining gapiga humor bilan javob qaytaryapti, befarqligini shu yo'l bilan ko'rsatyapti. Bu esa O'zbekoyimning jahlini chiqaradi.

To'xtasinov tarjimasida Otabek shunchaki ovqatlanib o'tirardi, deyilgan. Xo'rillatib choy ichish effekti yo'q. O'zbekoyimning gapiga e'tiborsizlik bilan, nima deyapsiz, deganday yumor tarjimada aks etmagan. Mark Reese o'z tarjimasida mana shu effektni saqlagan, ya'ni onasining gapiga befarq bo'lib og'zini to'ldirib-to'ldirib choy ichib o'tirgan Otabekning holatini inglizchada ko'rsata olgan<sup>2</sup>.

Ilhomjon To'xtasinov va O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti bir guruh tarjimonlari tomonidan amalga oshirilgan ushbu tarjima asar ham ko'pgina tadqiqot ishlarini o'rganishda asosiy manba sifatida o'rganilib kelmoqda. Aslida ingliz tili xorijiy til hisoblangan o'zbek millatiga mansub tarjimonga butun boshli romanni ingliz tiliga tarjima qilishi, bu-katta jasorat sanaladi. Tarjimon bu asardan tashqari Alisher Navoiy g'azallari, Abdulla Qodiriyning

<sup>2</sup> <https://kun.uz/news/2021/04/28/otkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F04%2F28%2Fotkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi>

“Mehrobdan chayon” romanini, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanini, Odil Yoqubov va Tohir Malik romanlarini, G‘afur G‘ulom qissalarini o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan.

Islom Karimov fondi o‘zbek adabiyoti durdonalarini tarjima qilish va chop etishga grant ajratish orqali O‘zbekistonning boy madaniy me‘rosini asrash va targ‘ib etishga hissa qo‘shib kelmoqda, deb ma‘lumot beriladi fondning Facebookdagi sahifasida. Fond O‘zbekistonning YUNESKOdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda o‘zbek romanchilik maktabining ilk namunasi bo‘lgan A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini ingliz va fransuz tillariga tarjima qilinishiga tashabbuskorlik qiladi. Asarning ingliz tiliga tarjimasi Lola Tillayeva Karimova tashabbusi bilan Karimov fondi homiyligida amalga oshiriladi. Britaniya universiteti rus adabiyoti fakulteti magistranti, o‘ttizdan ziyod badiiy tarjimalar muallifi Karol Ermakova tarjima uchun “O‘tkan kunlar” romanini ingliz tiliga tarjima qilish uchun asarning rus tilidagi varianti “Минувшие дни” dan foydalanadi. Abdulla Qodiri asari “Days Gone by” nomi bilan 2018-yilda Parijdagi “Nouveau Monde Editions” nashriyotida chop etildi. Tarjima asarga Julie Vikenden muharrirlik qiladi, rassom Bobur Ismoilov illustriyalar chizadi. Karol tarjimaga 143 ta izohlar keltirgan. Lekin hozircha asarning yuqorida rejalshtirilgan fransuz tilidagi tarjimasi haqida ma‘lumotlar keltirilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, yuqorida keltirilgan o‘zbek milliy romanchiligining debochasi bo‘lgan hamda yaratilganiga bir asrdan ortiq vaqt bo‘lishiga qaramasdan milliy va xorijiy o‘quvchilar qalbidan chuqur joy egallab kelayotgan “O‘tgan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjima qilinishi, bu asarni tarjima qilinishidagi mashaqqatli mehnat jarayoni tarjimonlarning nafaqat bu asarga, balki o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmat va muhabbatining izhori hisoblanadi. Bunga, albatta, o‘quvchigina xolisona baho bera oladi. Shu o‘rinda, ushbu tadqiqotda tarjimonlar Ilhomjon To‘xtasinov, Mark Eduard Reese va Karol Ermakovaning tarjima variantlari va ularga ba‘zi tadqiqotchilarning hamda roman o‘quvchilarining fikrlari keltirib o‘tildi.

## REFERENCES

1. Habibulla Qodiri. “Otam haqida” (Xotiralar, to‘ldirilgan ikkinchi nashr). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
2. I. M. To‘xtasinov, O. M. Muminov, A. A. Hamidov. “The Days Gone by”. Tashkent: “Mashhur-Press”, 2017.
3. Karol Ermakova. Abdulla Qadiri. “Days Gone by”. –Parij: Nouveau Monde editions, 2018.
4. Mark Eduard Reese. Abdullah Qodiri. “O‘tgan kunlar”/”Bygone Days”. -Nashville TN, 2019.
5. O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi, 1-tom (o‘zbekcha), Toshkent: Science and Innovation, 2022 — 342 bet.
6. <https://yuz.uz/uz/news/mark-riz--otkan-kunlar--jahon-adabiyoti-durdonasi>
7. [https://kun.uz/news/2021/04/28/otkan-kunlar-romanini-engliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi](https://kun.uz/news/2021/04/28/otkan-kunlar-romanini-engliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F04%2F28%2Fotkan-kunlar-romanini-engliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi)